

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

O'QUVCHILARDA SPORT VOSITASIDA MILLIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHNING VA KASBIY KOMPETENLIGINI RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Qosimov Akmal Nasriddinovich

Farg'onan davlat universiteti

Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya Ta'lif muassasalarida o'quvchilar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy axloqiy sifatlarni singdirish orqali o'zligini anglashga yordam beradigan differentsial pedagogik-sixologik dasturlarni yaratish; darslik, o'quv qo'llanmalarda milliy-axloqiy sifatlar, qadriyatlar, ajdodlarimiz merosini aks ettiruvchi manbalardan unumli foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan.

Kalit so'zlar Milliy identiklik, inson identikligi, normalar, qiziqish va tamoyillari, stereotiplar va amal qiladigan yo'riqlarini prognozlash.

Bugungi kunda milliy identiklik tarbiyasi dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ilmiy tadqiqotlar doirasida identifikatsiya, identiklik, milliy identiklik muammolari nihoyatda kam o'r ganilgan masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Mazkur maqolada o'zbek xalqining umuminsoniy va milliy mentalitetidagi xususiyatlar, o'zbeklarning ijtimoiy-madaniy hayotidagi milliy o'zlikni anglashga bo'lgan istak va mayllari, aholining millat sifatida o'zaro munosabatlarga kirishishdagi monandligi, identiklikni namoyon etish xususiyatlari tahlil etiladi.

Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasbhunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirish imkoniyati oshadi.

Milliy tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda uning psixologik mexanizmlarini o'r ganish, mazkur masalada oila, maktabgacha ta'lim, umumiyl o'rta ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

«Tarbiya» so'zi «milliy tarbiya» tushunchasining tarkibiy qismi bo'lganligi tufayli bu tushunchaga ham yangicha yondashgan holda, xolis ilmiy pedagogik ta'rif bermoq kerak. Arabcha «tarbiya», «tarbiyat» so'zlarini 1) parvarish qilmoq; ta'lim

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

bermoq; o'rgatish; odob o'rgatish; 2) navozish, mehribonlik ko'rsatish: ko'zquloq bo'lish; himoya qilish kabi ko'pqirrali mazmunga ega. «Tarbiyachi» so'zi esa shu ko'pqirrali tarbiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchidir¹³. Demak, milliy tarbiyaning lug'aviy ma'nosini «yosh avlodlarni o'z xalqiga xos milliy fazilatlar namunasida shakllantirish, ta'lism bermoq» sifatida aniqlash mumkin.

Inson identikligi qandayligiga qarab, uning xatti-harakatlarini qabul qiladigan yoki inkor etadigan qadriyat va normalar, qiziqish va tamoyillari, stereotiplar va amal qiladigan yo'riqlarini prognozlash mumkin. Ijtimoiy identiklik o'zida ijtimoiy guruhga mansubligini anglashga qaratilar ekan, unda mazkur guruhda ahamiyatli bo'lgan qadriyat va yo'riqnomalar, shakllantirilgan stereotiplarning jamiyat uchun qabul qilingan mavjud me'yordi yashovchanligi oshadi. Taxmin qilish mumkinki, individ uchun har bir holatda identiklik turlari turli darajada dolzarb bo'ladi. Ya'ni ayni shu holatda biron bir alohida identiklik yuzaga chiqadi va asosiy, «etakchi» (dominant) bo'ladi. Demak, shu paytda individ o'z mansubligini anglash barobarida, me'yor, qadriyatlari va boshqalarning butun bir tizimiga o'zining bog'liq bo'lishligini ta'minlaydi. Batafsil fikr bildiriladigan bo'linsa, aytish mumkinki, qadriyatlari ierarxiyasi doimiy emas, u muayyan paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi va identiklik talablariga bog'liq ravishda amalga oshirilayotgan xattiharakat modellarini qayta tizimlashtiradi. SHu nuqtai nazardan muammoga nazar tashlansa, har qanday dolzarb ijtimoiy identiklik xattiharakat va ichki mohiyatni baholashda qarorlar orqali ifodalanadi.

Individ o'ziga u yoki bu ijtimoiy makonni tanlar ekan, shu bilan o'zi uchun aniq identiklikni ham tanlaydi. Biroq noturg'un hayot kishilarning sotsiumdagi o'rnini o'zgaruvchan, ya'ni – bugun turmushning sotsial pillapoyalarida biror narsa ahamiyatli bo'lsa, ertasiga esa boshqa holat

«ommabop, nufuzli, dolzarb» bo'lishi tufayli individning ayni damdagi jamiyatda egallagan o'rnini hamma vaqt ham nufuzli va foydali bo'lishigakafolat berolmaydi. Tabiiyki, individ barqaror mansublikni istaydi, chunki o'zgaruvchan shartsharoitlar uning ijtimoiyruhiy barqarorligini izdan chiqarib yuborishi mumkin. SHundan kelib chiqib unda ba'zan etnik mansublik ustuvorlik qilsa, ba'zida diniy identiklikka ehtiyoj paydo bo'ladi.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni keltirmoqchimiz: ta'lim muassasalarida o'quvchilar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliyaxloqiy sifatlarni singdirish orqali o'zligini anglashga yordam beradigan differentsial pedagogikpsixologik

¹³ Jabborov X. Milliy tarbiyaning qadimiy va zamонавији ijtimoiy-psixologik omillari. Ta'lim va innovasion tadqiqotlar (2022 yil № 9). – 270-272.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

dasturlarni yaratish; darslik, o'quv qo'llanmalarda milliyaxloqiy sifatlar, qadriyatlar, ajdodlarimiz merosini aks ettiruvchi manbalardan unumli foydalanish; ta'lim muassasalarida ma'naviyaxloqiy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish, yoshlar dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi turli madaniy, siyosiy, ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish; pedagog kadrlarni ma'naviyaxloqiy bilimlarini chuqurlashtirish, o'z fanining sirlarini yoshlarga yetkazishda milliy g'ururni shakllantiruvchi tarixiy manbalardan foydalanish; yoshlar bilan turli sohaning yetakchi, namunali, ya'ni zamonamiz qahramonlari bilan davra suhbatlari va uchrashuvlar o'tkazish; ularda ma'naviy axloqiy sifatlarni rivojlantirish uchun yosh va pisixologik hususiyatlarni hisobga olish; yosh davrlarga mos tarbiya vositalari va metodlari, psixologik ta'sir o'tkazuvchi usullarni tanlay bilish; yoshlarda milliy o'zo'zini anglashni shakllantirishda muborak qadamjolarni ziyyarat qilish, tarixiy maskanlarga sayohat uyshtirish, xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishtirish g'oyat muhim.

1. Sharq xalqlarida tarbiya borasida ulkan ma'naviy meros yaratilgan. Bu meros asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib sayqallanib, yosh avlod barkamolligini ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda. Mana shunday an'analarimizdan biri o'quvchilar ta'lim va tarbiyasidagi boy pedagogik tajriba hisoblanib, faol va intizomli o'quvchiyoshlarni tarbiyalayotgan oilalar millat kelajagiga mas'ul eng katta tarbiyachilar hisoblanadi.

2. Milliy o'zlikni anglashdagi qadriyatlar tizimni saqlab qolishda tarixiy xotira muhim ahamiyatga ega. Zero tarixiy xotira millatning ongli faoliyati davomida yaratilgan ma'naviy salohiyatining ajralmas qismi bo'lib, millatning o'tmishni bilishi, uni qadralashi, undan saboq ola bilish darajasini anglatuvchi tushunchadir. Tarixiy xotira millatning ongli faoliyati davomida yuzaga keladi va uning ijtimoiy ong yuksalishi jarayonida avloddanavlodga meros bo'lib o'tadi.

3. Milliy identiklik millatga mansublikni his qilish, uning tarixini, urf-odat, an'ana, qadriyattlarini tizimlashgan holda anglashda namoyon bo'ladi. Milliy identifikatsiya jarayonida millatning sha'ni, qadrqimmati, obro'-e'tibori poymol etilganda yoki millatning manfaatlariga zarar keltiradigan holatlar boshlanib ketgan vaqtda yaqqol sezilib, millatni jipslashtiruvchi, birlashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

4. Milliy identiklik tarbiyasi millatning barcha shakl va ko'rinishidagi manfaatlarini ifodalash yoki himoya qilish bilan cheklanib qolmasdan, millatning mavjudligini ta'minlab turuvchi mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. U Ona tilga, Vatanga, an'ana, urfodatlarga, millatning turmushtarziga, madaniyatiga sodiq qolishi, har qanday sharoitda ham uni tark etmasligi, Vatan mustaqilligi uchun jon fido qilishga tayyor bo'lishini ong orqali ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

5. Identiklik masalalariga tadqiqotchilar uzoq yillar mobaynida kasbiy nuqtainazardan chuqur yondashmadilar va u ko'pincha psixologiya fanining tadqiqot ob'ekti sanalgan. SHu sababli ijtimoiy fanlarga oid tadqiqot ishlarida "o'zlikni anglash" omili "identiklik" tushunchasi bilan uyg'un holatda aks ettirilardi. Aslida milliy identiklik o'zida mentalitet va o'zlikni anglash tushunchalarini mujassam etib, har qanday millatlarning xarakterli xususiyatlarini belgilab berishda ushbu atamalarni alohida olib o'rganish maqsadga muvofiq.

6. Milliy o'zlikni anglashning yana himoya funktsiyasi ham mavjud. U madaniy qadriyatlarni saqlashda namoyon bo'lib, milliy-madaniy qiziqishlarni himoyalash va rivojlantirish, milliy qadriyatlarni ichki yoki tashqi ta'sirlardan asrashni ta'minlaydi. Milliy o'zlikni anglash an'analarini avloddanavlodga uzatishda, bundan tashqari tarixiy, diniy va madaniy boyliklarni saqlashda ishtirok etadi.

7. O'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasihatgo'ylikdan qochish kerak. O'quvchilarning vatan va elyurt taraqqiyotida ularning bevosita mas'ul ekanliklari, tarixda otabobolarimiz hayoti yuksak ma'naviyat egasi ekanligimizga asos bo'lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo'shilgan holda, bo'lajak ma'lum kasbkor egalari sifatidagi bilimlarini o'rgangan tartibda yondashish kerak bo'ladi.

8. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va Vatan mudofaasiga tayyorlashni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Талипджанов, Алиджан Акрамович, and Бурханиддин Дониярджон Угли Рахмонов. "ПРИВЛЕЧЕНИЯ ЖЕНЩИН К СПОРТУ." Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. Vol. 2. No. 4. 2023.
2. Akramovich, Talipdjanov Alidzhan. "PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.4 (2023): 225-230.
3. Akramovich, Talipdjanov Alijon, and Akhmedov Umidjon Usmonovich. "Pedagogical Requirements Of Physical Education Training In The Higher Education System." Onomázein 62 (2023): December (2023): 2365-2369.
4. Талипджанов, А. А., Б. Б. Нурматов, and А. А. Пармонов. "Учебно-тренировочный процесс по футболу." International conference: problems and scientific solutions. Vol. 1. No. 6. 2022.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

5. Fofov, Abdovoxtid Makhmudovich, and Abdushokir Makhmudovich Fofov. "ФИЗКУЛЬТУРНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НА ПУТИ К УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
6. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
7. Makhmudovich, Gofurov Abduvokhid, and Gofurov Abdushokir Makhmudovich. "STUDY OF FUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG SWIMMERS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 29-31.
8. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.
9. Gayratovich, S. S. (2022). Development of volleyball sport, world championship olympic games. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(12), 51-54.
10. Jakubjonova, F. I., & qizи Asqarova, M. U. (2023, November). Взаимосвязи физической и технической подготовки волейболистов. In international scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 2, No. 9, pp. 48-54).
11. Umarova, Z. U., & Ugli, Y. D. N. (2023). Innovative technologies and their application in sports.
12. Akramjonovich, Y. I., & Ismoilovna, Y. F. (2023). Fitness development and training in youth education. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 492-495.